

## “BALD ON RECORD” STRATEGIYASINING XUSHMUOMALALIK TAMOYILINI IFODALANISHDAGI AHAMIYATI

(Tohir Malik asarlari tahlili asosida)

Yuldosheva Mashhura Zokirjon qizi

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

*Annotatsiya. Maqolada Braun va Levinson nazariyasiga asoslangan xushmuomalalik xatti-harakatlarini umumlashtirish mumkin bo'lgan to'rtta asosiy xushmuomalalik strategiyasi mavjudligi, ushbu xushmuomalalik strategiyalaridan biri bo'lgan bald on record strategiyasining qachon va qaysi o'rinlarda qo'llanishi Tohir Malik asarlarida qo'llangan dialoglar asosida tahlil etilgan.*

*Kalit so'zlar: xushmuomalalik nazariyasi, pragmatika face – yuz tushunchasi, ijobiy yuz, salbiy yuz, bald on record, direktiv akt.*

## THE IMPORTANCE OF THE «BALD ON RECORD» STRATEGY IN EXPRESSING THE PRINCIPLE OF POLITENESS

(based on the analysis of the works of Tahir Malik)

Yuldosheva Mashhura Zakirjon kizi

Namangan State University's doctoral student

*Abstract. The article shows that there are four basic politeness strategies that can summarize polite behavior based on Brown and Levinson's theory, when and where to use the bald on record strategy, one of these politeness strategies, dialogues used in the works of Tahir Malik analyzed based on*

*Key words: politeness theory, pragmatics face - face concept, positive face, negative face, bald on record, directive act.*

## ЗНАЧЕНИЕ СТРАТЕГИИ «ЛЫСОГО НА ЗАПИСЬ» В ВЫРАЖЕНИИ ПРИНЦИПА ВЕЖЛИВОСТИ

(на основе анализа произведений Тахира Малика)

Юлдошева Маишура Закирджон кизи,

докторант Наманганского государственного университета

*Абстракт. В статье показано, что существуют четыре основные стратегии вежливости, которые позволяют обобщить вежливое поведение на основе теории Брауна и Левинсона, когда и где использовать стратегию «лысый на записи», которая является одной из таких стратегий вежливости, проанализированы диалоги, используемые в произведениях Тахира Малика на основе.*

*Ключевые слова: теория вежливости, прагматическая концепция «лицо-лицо», положительное лицо, отрицательное лицо, bald on record, директивный акт.*

**Kirish.** Politeness (xushmuomalalik) nazariyasida «bald on record» strategiyasi odatda bevosita va ochiq kommunikatsiya usuli sifatida tushuniladi va alohida turlari emas, balki kommunikatsiya strategiyalari ichida bevosita va to'g'ridan to'g'ri nutqni ifodalashni o'z ichiga oladi. Ushbu strategiya, kommunikatsiya jarayonida «yuz» tushunchasiga nisbatan tahdid soladigan harakatlarning (FTA - face-threatening acts) bir qismi sifatida qaraladi va tinglovchining ehtiyotkorligini hisobga olmaydi.

Brown va Levinsonning politeness nazariyasi quyidagi asosiy strategiyalardan iborat:

1. Bald on record: to'g'ridan to'g'ri talab yoki buyruq bilan biror narsani so'rash.
2. Positive politeness: tinglovchining ijobiy «yuz»ini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi.
3. Negative politeness: tinglovchining salbiy «yuz»iga hurmat sifatida ishlatiladi.
4. Off-record: bilvosita ma'lum bir harakatni so'rab, umumiy vositalar yoki kinoyalar yordamida tinglovchiga biror narsani qilishni taklif qilish.
5. Don't do the FTA: FTA (face-threatening act) ni umuman bajarmaslik. [3, 3]

«Bald on record» atamasi odatda faqat shu nom bilan tanilgan bo'lsa-da, bu kommunikatsiya uslubining konsepti turli madaniyat va tillarda turlicha tarzda ifodalangan bo'lishi mumkin. Misol uchun, ba'zi tillarda yoki adabiyotlarda u «to'g'ridan-to'g'ri strategiya», «bevosita nutq», «ravshan ifoda» yoki

«ochiq ifoda» kabi ko'chirmalar yordamida tasvirlangan bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, «bald on record» atamasi, aynan Brovn va Levinsonning politeness (xushmuomalalik) nazariyasida keltirilgan to'g'ridan to'g'ri gapirishning bevosita uslubi sifatida keng qabul qilingan va o'rganilgan. Ushbu uslubning aniq bir ekvivalentini boshqa nom bilan atalganini aniqlash uchun, turli tillarni solishtirish va xalqaro kommunikatsiya adabiyotlarini ko'rib chiqish lozim bo'lar edi. Bu struktura ijtimoiy muloqotdagi odob-axloq me'yorlarini va tinglovchi bilan gapiruvchi o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq harakatlarni ifodalashga yordam beradi. Har bir strategiya muayyan kontekst va madaniyatda turli tarzda qo'llaniladi va ular o'rtasidagi o'tishlar ham yumshoq bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida xushmuomalalik nazariyasi va strategiyalarni sotsiopragmatik jihatdan tadqiq etish tilshunoslar oldida turga muhim vazifalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O'zbek tilshunosligida S. Mo'minov, Sh. Iskandarova, M. Hakimov, Sh. Safarov va boshqalar tomonidan nutqning kommunikativ, ijtimoiy va pragmatik jihatlari o'rganilgan, darslik hamda qo'llanmalar yaratilgan. Ayniqsa, Politeness (xushmuomalalik) nazariyasini tadqiq etgan M. B. Xolovanning "Ingliz va o'zbek badiiy asarlarida xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari" (2023) nomli monografiyasida "bald on record" strategiyasidan foydalanish haqida misollar keltirilgan bo'lib, o'zbek tilida hurmat kategoriyalari tahlil etilgan. H. Komilovanning "Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi" nomli dissertatsiyasida jahon tilshunosligida xushmuomalalik tamoyillari, uning nutqda namoyon bo'lish usullari haqida salmoqli ma'lumotlar berilgan va bald on record termini "direktiv strategiya" nomi bilan atagan [1,23] bo'lib, fors va o'zbek nutqida salomlashuv, xayrlashuv, mulozamat va mehmondorchilikda qo'llanadigan nutqiy etiket birliklar tadqiq etilgan.

Metodologiya:

«Bald on record» strategiyasi Brovn va Levinson tomonidan ishlab chiqilgan politeness teoriyasi [2, 3] doirasida, «yuzga tahdid soluvchi harakat» (FTA – face-threatening act) sifatida ko'rib chiqiladi. «Yuz» shaxsiy ijtimoiy obro-e'tibor va shaxsiy idrok etilgan imidjni anglatadi. Har bir shaxs o'zining «ijobiy yuzi» (boshqalar tomonidan qabul qilinuvchi va hurmat qilinuvchi bo'lish istagi) va «salbiy yuzi» (mustaqillik va erkinlikka hurmat)ni himoya qilishni istaydi.

Direktiv kommunikatsiya uslublarida, xususan «bald on record» strategiyasida, gapiruvchi to'g'rida to'g'ri va bevosita xohish yoki talabini bildiradi va bu suhbatdoshning «yuziga» tahdid solishi mumkin, chunki u yoki «ijobiy yuz»ni rad etish yoki «salbiy yuz»ga zarar berish orqali uning erkinligiga yoki ijtimoiy qadrlangan mavqeyiga tahdid solishi mumkin.

Tahlil va natijalar:

Bald on record (bevosita yoki direktiv) strategiya bu – xushmuomalalik strategiyasining birinchi strategiyasidir, bunda suhbatdoshlar kerak bo'lgan narsani, harakatni talab etadi, komunikatorlar bir-biriga yaqin bo'lgan holatlarda (bir oila vakili, do'st, yaqin munosabatga ega bo'lganlar nutqida) namoyon bo'ladi va iltifotsiz, ochiq, to'g'ridan to'g'ri direktiv nutq aktidan foydalanadilar. [4, 94] To'g'ridan to'g'ri imprativlar ushbu strategiyaning yaxshi namunasidir. [5, 80]

Bu strategiyadan foydalanilganda:

- so'zlovchining tinglovchiga direktiv hamda ochiqcha o'z niyatini yoki talabini bildirishi;
- tinglovchining «yuziga» hech qanday e'tiborsizlik bilan gapirish, bu orqali ularning ijtimoiy obro'siga tahdid solishi;
- hamkorlik yoki yuz saqlash usullarini ishlatmaslik orqali to'g'ridan to'g'ri buyruq yoki ko'rsatmalar berish;

- suhbatdoshlar o'rtasidagi aloqa shunday darajada bevosita va aniq bildiriladiki, bu ba'zan qo'pol yoki haddan tashqari to'g'ridan to'g'ri qabul qilinishi mumkin.

O'zbek madaniyatida «bald on record» kommunikatsion strategiyasi boshqa ko'plab madaniyatlardagi kabi ehtiyotkorlik bilan qo'llaniladi. O'zbek jamiyatida odob-axloq va hurmat muhim qadriyatlar hisoblanadi, shu sababli to'g'ridan to'g'ri va diplomatik bo'lmagan kommunikatsiya uslublari ba'zan noo'rin bo'lishi mumkin.

«Bald on record» strategiyasida gapiruvchi odatda tinglovchining his-tuyg'ulari yoki ijtimoiy mavqeiini hisobga olmaydi, bu esa ba'zan muhim munosabatlar zarar ko'rishi yoki suhbatdosh o'rtasidagi muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Badiiy asarlarda «bald on record» strategiyasining qo'llanilishi personajlar orasidagi to'g'ridan

to'g'ri va ochiqchasiga muloqot qilish hollari uchun ishlatiladi. U quyidagi holatlarda ko'rinadi:

I. Badiiy obrazlar orasidagi yaqinlik: Yaqin munosabatdagi personajlar, masalan oila a'zolari yoki do'stlar o'rtasida «bald on record» uslubi tabiiyroq bo'lishi mumkin, chunki ular bir-birlariga nisbatan ochiq va bevosita gapira olishlari kerak.

Ona va farzandi o'rtasidagi suhbat:

Asrorni onasi turtib uyg'otdi:

- Yomon tush ko'rdingmi, buncha baqirmasang?

Asror indamadi. Uyquli ko'zlarini chirt yumib oldi.

- Yonboshlab yot, bosinqirabsan...

Onasi shunday deb chiqib ketdi. [8, 4]

O'zbek tilida senlab yoki sizlab murojaat qilishning o'ziga xoslisoniy-uslubiy me'yorlari mavjud. Asosan, yoshi, mavqeyi, lavozimi, rasmiy maqomi kabi omillar asosidagi vertikal munosabatlarda sizlab murojaat qilinadi. Aksincha, o'ziga nisbatan kichik yoshdagilarga, tengqur, do'st-birodar, yaqin qarindosh yoki norasmiy maqomdagilarga nisbatan sensirab murojaat qilish mumkin. [6, 31]

II. Badiiy obrazlarning o'zaro munosabatlardagi dominantlik: Ustoz va shogird, rahbar va ishchi kabi o'zaro ierarxik munosabatlarda, odatda ustunlik qiluvchi tomon «bald on record» usulidan foydalanishi mumkin.

... Uningni o'chir! — dedi Asadbek dag'al ovozda. — Uyga bor, ovozingni chiqarma. Bitta-yarimta so'rasa... ammasinikida edi, de.

— Voy... — Manzura eriga ajablanib qaradi. — Ammasi yo'q-ku?

— He noshud, — Asadbek shunday deb g'ijindi. «Bu lalaygan xotin eplab bir bahona topolmasa...» — ammasi bo'lmasa... ko'chada mashina sal turtib ketibdi, de, kasalxonada ekan, de...

Bor... To'xta, kim bilan kelding?

— Jamshid bilan.

— Seni tashlab, Jalilni olib kelsin. (Shaytanat 1-kitob Tohir Malik)

Uningni o'chir, uyga bor, ovozingni chiqarma, he noshud, bor, to'xta kabi buyruq fe'llari Asadbek tomonidan aytilgan bu so'zlar tinglovchi (turmush o'rtog'i Manzura) tomonidan oddiy buyruq sifatida qabul qilingan, buning sababi u bir oila vakili hamda har doim eshitishi mumkin, kun ora unga bo'lmasa ham, qo'l ostidagi yigitlarga qo'llanadigan so'zlardek qulog'iga chalinadi.

3. Favqulodda vaziyatlar: Xavfli yoki favqulodda vaziyatlar, qahramonlarning darhol harakat qilishini talab qilganda, personajlar bevosita va tez qaror qabul qilishlari kerak bo'lganda «bald on record»dan foydalanishadi.

... Tepadan ovoz keldi. Jahongir shoshib qaraydi: yo'g'on shox ustida Zokirxo'ja o'tiribdi.

Qo'lida tasbeh.

— Ehtiyot bo'ling, yiqilib tushasiz, — deydi Jahongir unga.

Shunday deyishi bilan shox qarsillab sinib, Zokirxo'ja to'g'ri Jahongirning ustiga qulaydi... [9, 21]

4. Badiiy obrazlar o'rtasidagi nizo: Ziddiyatli yoki keskin munozarali sahnalarda personajlar boshqalarga o'z fikrlarini qat'iy va ravshan ifodalay olishi uchun «bald on record»dan foydalanishlari mumkin. Misol:

Chuvrindi tog'asining tashvishini anglab tursa ham o'zini bilmaganga oldi-da:

— Ha, tinchlikmi? — deb qo'ydi.

— Dadam yubordilar, nimaga olib kirmading deb, meni ancha koyidilar. Borsangiz yaxshi bo'lardi.

— Shuni aytgani keldingmi?

Tog'asini sensirashi Chuvrindining o'ziga ham xunuk tuyulsa-da, sizlashga tili bormadi. Tog'asi esa bu sensirashni bo'lajak xunuk bir voqeaning darakchisi sifatida qabul qildi. Keksayib qolgan odamning dovdirashi g'alati bo'larkan. Aytadigan gapini ham yo'qotgan tog'asi shu topda ishtonini ho'l qilib endi onasidan shapaloq kutayotgan bola holidi edi. Chuvrindi «o'l, bu kuningdan», deb o'ylab, uning bu holidan nafratlandi, ayni o'rinda kulgisi ham keldi.

— Ertalab boraman.

— Janozani bomdoddan keyin hovlida o'qiydigan bo'lishdi.

— Xo'p, yana nima demoqchisan? Gaping bo'lsa, ayt, ichingda qolib, sasib ketmasin. [10, 136]

V. Shaxsiy xarakter xususiyati: bunda personajning o'ziga xosligiga, asarning umumiy ohangiga,

obrazlar o'rtasidagi munosabatlarga, muallifning maqsadiga ko'ra talqin etiladi. Bu uslubdan personajlarning shaxsiyati, ijtimoiy o'rni, muloqot uslubi va tili xarakteristikasini chuqur tasvirlash uchun foydalandiladi. Misol:

Hojasining o'rniga Chuvrindi manzirat qildi:

— Akaxon, doim shoshib turasiz-a, gurunglashib o'tiruvdik-da...

— Men ishlaydigan odamman. Ishlasam menga bir burda non berishadi, ishlamasam, yo'q. Bolalarimning rizqini halol topaman. Senlarga o'xshagan bekorchi bo'lganimda biqsib yotaverardim.

Manziratiga javoban «shiringina» gap eshitgan Chuvrindi hojasiga qarab, bosh chayqab qo'ydi.

— Yigitlarga ayt, olib borib qo'yishsin.

— Onam meni moshinada tug'maganlar, avtobusda ketaveraman, — dedi Jalil.

— Akaxon, mashina tayyor-a, — dedi Chuvrindi.

— Qo'y, uka, men moshinaga o'rganmagan odamman. U senlar, hojatxonaga ham moshinada boradigan. [11, 76]

Yuqoridagi badiiy parchada “Shaytanat” asaridagi Jalil obrazining nutqi berilgan bo'lib, “tili” achchiqroq, ammo har doim haqiqatni gapiradigan shaxs sifatida gavdalantirilgan bu personaj go'yo yozuvchining nima demoqchi bo'lgan o'y-fikrlarini so'zladay tasvirlanadi. Shuning uchun uchun Jalil nutqida bevosita nutq strategiyasidan unumli oydalangan.

VI. Ma'lum bir harakatga urg'u berish: Muayyan bir fikr yoki xohishni ta'kidlash va unga urg'u berish, boshqa fikrlar yoki qarashlar orasidan ajratish.

Ammo rais tilga kirishi bilan bu o'yning puch ekani ma'lum bo'ldi.

- Ilojimiz qancha, - dedi rais yelka qisib, shunday ko'rsatma bor. Ikki minginchi yilgacha hammani uy-joy bilan ta'minlashimiz kerak.

Mayor bu gapdan hang-mang bo'ldi. Asablari qaqshab, barmog'i titray boshladi.

- Yaxshi, - dedi u g'azabini yutib, bizni ko'chirdingiz. Kelasi yili ikki o'g'lim oilasi bilan kaytsa, ularni qayerga joylashtirasiz?

- Bu o'shanda hal bo'ladigan masala.

- Siz menga bir narsani ochiq ayting: bu kimning buyrug'i?

- Kechirasiz, o'rtoq mayor, men sizga hisob bermayman. Men bilan bu ohangda gaplashmang. [8, 78]

Bald on record strategiyasi tinglovchining yuziga tahdidni minimallashtirishga harakat qilmaydigan strategiyadir, [7,71] ya'ni so'zlovchi o'z fikrini ochiq, to'g'ridan to'g'ri ifodalaydi. Tinglovchiga yoqish uchun hech qanday usuldan foydalanmaydi. Bu parchada norozilik va tahdid akti ustunlik qilgan.

VII. Shiddat va his-tuyg'ularni ifodalash: Qahramonning ichki hissiyotlari yoki hayajonining shiddatli tarzda ifodalovchi element sifatida.

Bunday munosabatlari yaqin emas kishilar orasida, rasmiy muloqotlarda mazkur strategiyaning ifodalanishi kishilarda ajablanish (shok holati), tushunmovchilik, hijolatli holat va hayajonni keltirib chiqarishi mumkin. [1, 23] Aynan shunday holatga quyidagi misolni keltiramiz:

... Ularnikiga biro odam serqatnov edi... Bir kuni Qamariddin kelib u kishining ro'parasiga o'tirdi. Ko'chada bolalar bilan musallas ichgan, shirakayf edi. Piyolada onasiga quyilgan aroq turgan ekan, shartta olib ichib yubordi-da, yana quyung, deb “otasining do'stiga” ga uzatdi.

- Yoshlik qilasan, - dedi u odam piyolani chetga olib qo'yib.

Shu paytgacha Qamariddin u bilan deyarli gaplashmagan edi. Salom Berardi-yu, ko'chaga chiqib ketardi. Bugun kayf ta'sirida qitmirlik qilgisi keldi.

- Sening bolang bormi? – dedi u dabdurustdan sensirab.

- Bor, - dedi “dadasining do'sti” g'azabini ichiga yutib.

- Detdomdami?

- Nimaga detdomda, uyda.

- Tashlab ketmaysanmi?

- Jinni bo'lganmisan?

- Bolalaringni tashlab, onamga uylan. Meni o'g'il qilib ol.

Shu payt oshxonadagi onasi kirib, ularning suhbatidan lol bo'lib tosh qotdi. “Otasining do'sti” ham bu taklifdan tamom gangidi.

- Qamarjon, bunaqa masalada hazil qilma.

- Uylansang uylan, bo'lmasa o'ldiraman.

- Qamar! – dedi onasi, uni yelkasidan ushlab.



Qamariddin qitmirlilik bilan ularni masxaralamoqchi edi. Ammo o'zi kutmagan holda nafrati uyg'onib, g'azabi qo'zg'iy boshladi. [8, 28]

Ushbu parchada hali yosh bo'lishiga qaramay Qamariddin "otasining do'sti" ga senlab murojaat qiladi, albatta, o'zidan yoshi katta insonga bunday so'zlash odobdan emas ammo u bor g'azabini ko'rsatish, tasvirlash uchun aynan bald on record - bevosita strategiyadan foydalangan. Bunday so'zlashish usuli tinglovchining yuziga tahdid soladi va salbiy xushmuomalalikni ifodalagan.

VIII. Samaradorlikka erishish: Tezkor harakat yoki qarorga ma'lum bir personaj tomonidan erishish maqsadida ishlatiladi.

... Nima qilib turibsan?

Asror cho'chib tushib orqasiga qaradi: Qamariddin o'qrayib turibdi.

- Nima bor bu yerda? – dedi g'azab bilan, keyin Asrorning yelkasiga turtidi.

- Qani yur, bu atrofga kelma devdim - ku! Yana darsdan qochdingmi? Bashkang ishlamay qolyaptimi? O'zingni tut! [8, 59]

Demak, Badiiy asarda «bald on record»ning qo'llanishi personajlarning xarakteridagi ochiqlik va samimiyatni ifodalashda yordam beradi, shuningdek ularga bo'lgan reaksiyani kuchaytiradi yoki ularning o'zaro munosabatlari tuzilishiga ta'sir qiladi. Badiiy adabiyotda bu kabi kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanish, asarning umumiy ohangini va personajlarning o'zaro muloqotini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ularda ro'y berayotgan ichki va tashqi konfliktlarni yoritadi.

«Bald on record» strategiyasi gapiruvchi tinglovchiga hech qanday yumshatishsiz, to'g'ridan to'g'ri o'z talab yoki fikrini bildirganda, ijtimoiy adab-axloq yoki xushmuomalalik qoidalariga itoat qilmaganda, tinglovchining «yuz»iga tahdid solganda namoyon bo'ladi. Bu harakatlar tinglovchining ijtimoiy obro'siga yoki mustaqilligiga zarar yetkazishi mumkin, shuning uchun xushmuomalalik nazariyasida ularni yuzga tahdid soluvchi nutqiy harakatlar deb tasniflashadi. Bu strategiya kontekstdan va suhbatdoshlar o'rtasidagi aloqalardan kelib chiqqan holda ishlatiladi va har doim ham salbiy ta'sir qilmasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H. Turdiyeva, "Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi", dissertatsiya – Toshkent – 2020,23-bet

2. Geoffrey Leech, The Pragmatics of Politeness.Oxford University Press -2014. USA. 3-pp

3. Regina Seiwald, The Importance of Face in "Politeness Theory". Germany – Grin Verlag, - 2011. 3-pp

4. Penelope Brown&Stephan C. Levinson, Politeness – Some universals in language usage. Cambridge University Press, New York - 1987. 94-98

5. F. Yuldosheva, Politeness strategies., International Scientific Conference, <http://www.conferenceseries.info>, 2021. 80-82-bet.

6. Madaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni "Bookmany print" Toshkent – 2023 31-bet

7. Thameemul Ansari, Dimensions in Discourse: Elementary to Essentials- 2013. 71-bet. [www.google.co.uz](http://www.google.co.uz)

8. Tohir Malik, Alvido bolalik, qissa. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) 4-, 28-, 59-, 78-betlar

9. Tohir Malik, So'nggi o'q, qissa. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) 21-bet

10. Tohir Malik, Shaytanat -2, roman. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) 136-bet

11. Tohir Malik, Shaytanat – 3, roman. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) 76-bet